



THE ACTIVITIES OF TROPICAL STATIONS IN UZBEKISTAN IN THE 1920S AND 1930S OF THE 20TH CENTURY

Gulshoda Botirjonova

PhD Student in the specialty

History of Uzbekistan

Namangan State University

E-mail: gulshodabotirjonova@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: reagents, tropical stations, malaria control, disinfection, sanitary supervision, laboratory, epidemiological surveillance, parasitic diseases, disinfectors, preventive measures, sanitary brigades, health posts.

Abstract: This article examines the processes of formation of the sanitary-epidemiological service in Uzbekistan during the 1920s, the establishment of tropical stations, and their initial activities. The study analyzes the main areas of sanitary supervision, laboratory work, disinfection measures, and the system of malaria control.

Received: 21.06.26

Accepted: 22.06.26

Published: 23.06.26

XX ASR 20-30-YILLARIDA O'ZBEKISTONDA TROPIK STANSIYALARNING FAOLIYATI

Gulshoda Botirjonova

Namangan Davlat Universiteti

O'zbekiston tarixi yo'nalishi tayanch doktoranti

e-mail: gulshodabotirjonova@gmail.com

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: reagentlar, tropik stansiyalar, bezgakka qarshi kurash, dezinfeksiya, sanitariya nazorati, laboratoriya, epidemiologik kuzatuv, parazitlar kasalliklar, dezinfektorlar, profilaktik tadbirlar, sanitariya brigadalari, zdravpunktlar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr 20-yillarida O'zbekistonda sanitariya-epidemiologiya xizmatining shakllanish jarayonlari, tropik punktlarning tashkil etilishi hamda ularning dastlabki faoliyati yoritilgan va sanitariya nazorati, laboratoriya ishlari, dezinfeksiya tadbirlari va bezgakka qarshi

kurash tizimining asosiy yo'nalishlari tahlil qilindi.

**ОСОБЕННОСТИ ЗАКЛЮЧЕНИЯ ТРУДОВОГО ДОГОВОРА С
ПЕДАГОГИЧЕСКИМИ РАБОТНИКАМИ: АНАЛИЗ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

Гульшода Ботиржонова

Базовый докторант (докторант PhD) по специальности

История Узбекистана

Наманганский государственный университет

E-mail: gulshodabotirjonova@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: реагенты, тропические станции, борьба с малярией, дезинфекция, санитарный надзор, лаборатория, эпидемиологическое наблюдение, паразитарные заболевания, дезинфекторы, профилактические мероприятия, санитарные бригады, здравпункты.

Аннотация: В данной статье рассматриваются процессы становления санитарно-эпидемиологической службы в Узбекистане в 1920-е годы, организация тропических пунктов и их первоначальная деятельность. Проанализированы основные направления санитарного надзора, лабораторной работы, дезинфекционных мероприятий и системы борьбы с малярией.

Kirish. XX asrning 20-30-yillariga kelib sanitariya-epidemiologiya xizmatining tashkiliy jihatdan shakllanish bosqichlari davom etdi. Jumladan, sanitariya muassasalarini moliyalashtirish, laboratoriyalar tashkil etish va epidemiyaga qarshi tadbirlarni kuchaytirish masalalari alohida e'tibot qaratildi. Ayniqsa, Farg'ona, Andijon, Namangan hududlaridagi epidemiologik vaziyatning murakkabligi sanitariya xizmatining hududiy faoliyatini kengaytirishni talab qildi. Sanitariya tizimi shakllanishining dastlabki bosqichlaridayoq markazlashgan boshqaruv asosida rivojlantirila boshladi. Qo'shimcha laboratoriyalar ochish va dezinfeksiya punktlarini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi epidemiologik vaziyatni nazorat qilishning zarurati o'rganilayotgan davr uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Mazkur sanitariya xizmatining davlat nazoratiga olina boshlashi hamda moliyaviy smetalarga kiritilishi nuqtai nazaridan masalaning dolzarbligini ko'rsatadi.

O'lkadagi epidemiologok holatdan kelib chiqqan holda sanitariya-epidemiologiya xizmatining muhim tarkibiy qismi sifatida Tropik stansiyalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Mazkur muassasalar zimmasiga bezgakka qarshi kurashish, dezinfeksiya tadbirlarini tashkil etish,

laboratoriya tekshiruvlarini olib borish, sanitariya kuzatuvlarini amalga oshirish hamda kasallik o'choqlarini nazorat qilish vazifalari yuklatildi [7; 7-bet]. Sanitariya tizimining izchil shakllantirib borilishi natijasida hududda sanitariya-gigiyena madaniyati oshirib borildi va ba'zi yuqumli kasalliklar tugatildi.

Sanitariya xizmatining asosiy yo'nalishlaridan biri bezgakka qarshi kurash masalasi hisoblangan. Suv havzalarini tekshirish, epidemiologik kuzatuvlarni kuchaytirish, sanitariya ishlovlarini amalga oshirish hamda kasallik o'choqlarini aniqlash bo'yicha topshiriqlar berib borildi. Shu bilan birga, profilaktik tadbirlar orqali kasallik tarqalishining oldini olishga e'tibor qaratildi [7; 6-bet]. Bu davrga kelib bezgak kasalligi sanitariya tizimining eng dolzarb muammolaridan biri bo'lganini qayd etish lozim.

Sanitariya-epidemiologiya xizmatining rivojlanishida laboratoriya faoliyati ham alohida o'rin tutdi. Suv namunalarini tekshirish, bakteriologik tahlillar o'tkazish, parazitlarni aniqlash va sanitariya kuzatuvlarini olib borishbir qator ishlar amalga oshirildi. Laboratoriyalarni jihozlash, reagent lar xarid qilish hamda maxsus mutaxassislarni tayyorlash masalalariga e'tibor qaratildi [7; 8-bet]. Bu esa sanitariya xizmatining epidemiologik vaziyatni nazorat qilishdagi ahamiyati ortib borganidan dalolat berar edi. Arxiv manbalariga ko'ra sanitariya nazorati bilan bog'liq tadbirlar, jumladan, suv manbalari, bozorlardagi savdo nuqtalari, oshxonalar, hammomlar va aholi yashash hududlari ustidan nazorat o'rnatish sanitariya xizmatining asosiy vazifalari qatorida ko'rsatilgan. Sanitariya qoidalariga rioya etilishi ustidan doimiy tekshiruvlar olib borildi [7; 10-bet]. Nazorat tadbirlari va tushuntirish targ'iboti ishlari natijasida aholining kundalik turmush sharoitlarini yaxshilash va kasalliklarni oldini olish ishlari asta-sekin yaxshilanib bordi. Mazkur tadqiqotda XX asrning 20-30-yillarida O'zbekistonda sanitariya-epidemiologiya xizmati tizimidagi tropik stansiyalar faoliyati, bezgakka qarshi kurash tadbirlari, sanitariya nazorati, laboratoriya faoliyati, dezinfeksiya ishlari hamda sanitariya brigadalarining amaliy faoliyati arxiv hujjatlari asosida yoritildi. Shu bilan birga, sanitariya tizimining tashkil etilishida davlat boshqaruvi va profilaktik yondashuvning o'rni o'rganildi.

Asosiy qism. XX asr 1920-yillarida tropik stansiyalar asosan bezgak-malyariya, parazitar kasalliklar, chivin o'choqlari, suv havzalari va sanitariya-epidemiologik kuzatuv bilan shug'ullangan maxsus muassasalar bo'lgan. Sovet tibbiy ensiklopedik manbasida tropik stansiyalar "bezgak- malyariyaga qarshi kurashning asosiy bo'g'ini" sifatida tavsiflanadi. Ular ambulatoriya, laboratoriya va sanitariya-ma'rifiy ko'rgazma-muzey qismlaridan iborat bo'lib, epidemiologik material yig'ish va bezgak tarqalish xaritalarini tuzish bilan shug'ullangan. SSSR bo'yicha bunday stansiyalar 1921-yilda 7 ta, 1922-yilda 24 ta, 1923-yilda 71 taga yetgani qayd

etilgan [18; 324]. O'zbekistonda sanitariya-epidemiologiya xizmatining shakllanishida muhim tarixiy bosqich hisoblanadi. Mazkur davrda respublika hududida yuqumli va parazitar kasalliklarning keng tarqalishi sanitariya nazoratini kuchaytirishni davlat miqyosidagi zarur vazifalardan biriga aylantirdi. Ayniqsa, bezgak kasalligining ayrim hududlarda ommaviy tus olishi sanitariya xizmatining faoliyatini такомиллашувига ва kengaytirishga sabab bo'ldi. Shu davrdan boshlab sanitariya-epidemiologiya tizimini markazlashgan holda tashkil etish, tropik stansiyalar ochish va profilaktik tadbirlarni muntazam yo'lga qo'yish ishlari kuchaydi [7; 3-bet]. Mazkur ma'lumotlar 1920-1930-yillarda sanitariya xizmatining shakllanishi bevosita epidemiologik vaziyatning og'irlashuvi bilan bog'liq bo'lganligini ko'rsatadi. Arxiv hujjatlarida sanitariya tizimining tashkil etilishi favqulodda holat sifatida emas, balki doimiy nazorat mexanizmi sifatida shakllantirilgani seziladi. Bu esa sovet davrida kasalliklarning oldini olish masalasiga strategik yondashilganini anglatadi. Ayniqsa, sanitariya xizmatining profilaktik yo'nalishda faoliyat yuritishi keyingi davrlarda epidemiologik nazorat tizimining shakllanishiga asos yaratди. Mazkur hujjatlar sanitariya tizimi davlat boshqaruvi bilan uzviy bog'langanini ham ko'rsatadi. Shu sababli sanitariya xizmatining rivojlanishi nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ham ega bo'lgan.

O'zbekistonda Sovet hokimiyati yillarida muhim ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Hududda odatdagidek kasalliklardan tashqari o'lkamizga xos kasalliklar ham tarqalgan edi. Xususan bu kasalliklarning etiologiyasi, xususiyatlari, patogenezi va oqibatlari tekshirildi. Ularni tugatish choralari ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Shu maqsadda respublikamizda bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari tashkil etildi. Dastlabki shunday muassasalardan biri Bakteriologik institut bo'lib, u 1920-yilda Toshkentda ochildi. Mazkur institut ommaviy kasalliklarning etiologiyasi va epidemiologiyasini o'gana boshladi. Yuqumli kasalliklarga qarshi vaksinalar ishlab chiqarildi. Ikkinchi ilmiy muassasa Tropik kasalliklar instituti esa 1924-yilda rishta kasalligining o'chog'i bo'lgan Buxoro shahrida ochildi. Bu institut tropik kasalliklar (rishta, bezgak, har xil gelmintozlar) ni o'rgandi, ularni tugatish choralari ishlab chiqdi va amalga oshirdi. Institut xodimlarining ilmiy va tashkiliy rahbarliklari ostida 1932-yilda O'zbekistonda rishta kasalligi tugatildi. Shu institut ishtirokida 1955-yilga kelib bezgak kasalligi ham tugatildi [4; 94-bet]. 1924-yilda Turkistonda 6 ta tropik stansiya va uning joylardagi tarmoqlari ishlab turdi. 1924-yilda respublikada 53 kasalxona, 151 ambulatoriya (ularning 79 tasi qishloq joylarida), 40 feldsherlik punkti va boshqa muassasalar bor edi [3; 168-bet]. 20-yillar o'rtalarida respublika hududida ikki bakteriologik laboratoriya, ikki Paster stansiyasi, 6 ta tropik stansiya va yigirma yetti tropik punkt

faoliyat yurita boshladi. Shu bilan birga, aholi orasida sanitariya-ma'rifiy ishlar yo'lga qo'yilib, gigiyena qoidalariga rioya qilish bo'yicha targ'ibot ishlari olib borildi [11; 38-bet].

O'zbekistonda bezgakga qarshi tashkiliy kurash 1920-yillarda kuchaygan. JSST statistikasida O'zbekistonda bezgak stansiyalari 1921-yilda Mirzacho'l va Toshkentda, 1922-yilda Samarqandda tashkil etilgan. 1924-yilga kelib taxminan 30 ta bezgakka qarshi muassasa va 10 ta vaqtinchalik punkt faoliyat ko'rsatgani ko'rsatiladi [14; 186-bet]. Leonid Mixaylovich Isayev bu jarayonda asosiy shaxslardan biri bo'lgan. O'zbekiston Davlat ilmiy tibbiyot kutubxonasi ma'lumotiga ko'ra, u 1922-yilda Moskva tropik institutidan Buxoroga bezgakka qarshi tadbirlarni tashkil etish uchun yuborilgan, 1923-yilda esa Buxoro Xalq Respublikasida parazitlar kasalliklarini o'rganish va ularga qarshi kurash bo'yicha ekspeditsiyani boshqargan. 1923-yil 24-dekabrda qaror bilan Buxoro tropik instituti tashkil etilib, Isayev uning direktori etib tayinlangan. Samarqand davlat tibbiyot universiteti maqolasida ham Isayev 1922-1923-yillarda Buxoro Xalq Respublikasida parazitlar kasalliklarini o'rganish ekspeditsiyasiga rahbarlik qilgani, 1924-yilda uning tashabbusi bilan Buxoro tropik instituti tashkil etilgani, keyinchalik bu muassasa O'zbekiston ilmiy-tadqiqot tibbiy parazitologiya institutiga aylangani va 1931-yilda Samarqandga ko'chirilgani qayd etiladi [15; 56-bet]. Tropik stansiyalar soni ortishi yuqumli kasalliklarga qarshi kurashda ijobiy natijalar ko'rsatdi. 1930-yillarda sanitariya-epidemiologiya tizimining shakllanishida tropik stansiyalar muhim o'rin tutgan. Tropik stansiyalar bezgakka qarshi kurashish, epidemiologik kuzatuvlarni olib borish, laboratoriya tekshiruvlarini amalga oshirish va sanitariya brigadalari faoliyatini tashkil etish bilan shug'ullangani qayd etiladi. Tropik stansiyalar faoliyati orqali hududiy sanitariya nazoratini yo'lga qo'yish maqsad qilingan. [8; 20-bet] Ushbu ma'lumotlar tropik stansiyalar sanitariya xizmatining asosiy amaliy markazlariga aylanganini ko'rsatadi. Ayniqsa, bezgakka qarshi kurash tadbirlarining aynan tropik stansiyalar orqali olib borilishi ularning strategik ahamiyatga ega bo'lganidan dalolat beradi. Tropik stansiyalar faoliyatining keng qamrovli tarzda tashkil etilgani seziladi. Bu esa sanitariya xizmatining faqat markaziy boshqaruv bilan cheklanib qolmaganini, hududiy tizim asosida ham rivojlantirilganini ko'rsatadi. Tropik stansiyalar faoliyati keyinchalik sanitariya-epidemiologiya tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biriga aylangan.

Farg'ona vodiysida Andijon tropik stansiyasi faoliyat yuritgan. 1947-yilda nashr qilingan "Личинкоядные рыбы Средней Азии" ilmiy asarida 1933-yilda va keyingi yillarda Andijon tropik stansiyasi tomonidan bezgakka qarshi kurashda lichinka yeydigan baliqlar, xususan suv havzalarida chivin lichinkalarini kamaytirish omili sifatida tadqiqot olib borilgani yozilgan. Bu ishlar I. F. Lushnikov va N. E. Smochilin, E. L. Gayskaya ishtirokida olib borilgan [16; 41-bet].

Tadqiqotlar natijasi bir qator amaliy yutuqlarni boshlab berdi va yuqumli kasalliklar tarqalishini oldini olishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Sanitariya tizimini rivojlantirishda dezinfeksiya brigadalari ham muhim o'rin egallagan. Sanitariya otryadlari tashkil etilishi, maxsus dezinfektorlar faoliyati va epidemiyaga qarshi brigadalar ishini kuchaytirish bo'yicha ko'rsatmalar mavjud edi. Ayrim hududlarda qo'shimcha sanitariya brigadalarini yuborish masalalari ham uchraydi [8; 29-bet]. Ushbu jarayon sanitariya xizmatining hududiy miqyosda kengayib borganidan dalolat beradi. Shuningdek, sanitariya xizmatining moliyaviy va tashkiliy ta'minotiga oid ma'lumotlarra k'ya, xususan, laboratoriyalar, dezinfeksiya vositalari, transport xarajatlari, sanitariya brigadalari va xizmat safarlari uchun mablag'lar ajratilgan [8; 24-bet]. Mazkur ma'lumotlar sanitariya tizimining davlat tomonidan markazlashgan tartibda moliyalashtirilganini ko'rsatadi. Bu esa sanitariya-epidemiologiya xizmatining sovet davridagi muhim ijtimoiy tizimlardan biri sifatida shakllanganini anglatadi.

Sanitariya xizmatining asosiy vazifalari sifatida epidemiologik kuzatuv olib borish, dezinfeksiya tadbirlarini tashkil etish, sanitariya tekshiruvlarini kuchaytirish va laboratoriya faoliyatini rivojlantirish masalalari hisoblangan. Ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari va suv manbalariga alohida e'tibor qaratilishi sanitariya tizimining amaliy jihatdan aholi salomatligini himoya qilishga yo'naltirilganini ko'rsatadi. Bu holat sanitariya xizmatining kundalik turmush bilan chambarchas bog'liq faoliyat olib borganini anglatadi. Shu bilan birga, sanitariya nazoratining muntazam tashkil etilishi epidemiologik vaziyat ustidan davlat nazorati kuchayganidan dalolat beradi.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda sanitariya-epidemiologiya xizmatining shakllanish jarayoni murakkab epidemiologik vaziyat ta'sirida rivojlanganini ko'rsatadi. Hujjatlarda bezgak, parazitlar va boshqa yuqumli kasalliklarning keng tarqalishi sanitariya nazoratini kuchaytirish zaruratini yuzaga keltirgani muntazam qayd etiladi. Ayniqsa, tropik stansiyalar faoliyatining yo'lga qo'yilishi sanitariya xizmatining hududiy tizim asosida shakllantirilganidan dalolat beradi. [8; 20-bet] Ushbu ma'lumotlar sanitariya tizimi epidemiologik xavfni kamaytirishga qaratilgan amaliy ehtiyoj asosida rivojlantirilganini ko'rsatadi. Arxiv materiallarida sanitariya xizmatining asosiy maqsadi kasalliklarni davolashdan ko'ra ularning oldini olishga yo'naltirilgani seziladi. Bu esa profilaktik yo'nalish sovet sanitariya siyosatining asosiy tamoyillaridan biri bo'lganini anglatadi. Shu sababli sanitariya tizimi qisqa muddat ichida davlat nazoratining muhim vositalaridan biriga aylangan.

Statistik jihatdan, JSST materialida O'zbekistonda 1930-1940-yillarda jami 3 110 944 ta malyariya holati ro'yxatga olingani, 1932-yilning o'zida kasallanish 10 000 aholiga 1474 holat,

ya'ni 717 721 holat bo'lgani ko'rsatiladi. PubMed'da e'lon qilingan maqolada ham O'zbekistonda malyariya ilgari eng keng tarqalgan kasalliklardan biri bo'lgani, yirik epidemiyalar davrida 140 mingdan 700 minggacha holatlar qayd etilgani yozilgan. Farg'ona vodiysining malyariyaga moyilligi geografik-iqlimiy sharoit bilan bog'liq bo'lgan [18; 40-bet]. JSST O'zbekiston bo'yicha malyariya eliminatsiyasi materialida Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlari malyariya tashuvchilari mavjudligi va daryo vodiylari bilan bog'liq sharoit sababli "yuqori qabulchanlik" hududlari qatorida sanaladi [14; 344-bet]. Tahlil sanitariya-epidemiologiya xizmatining markazlashgan boshqaruv asosida shakllanganini ko'rsatadi. Sanitariya brigadalari, laboratoriyalar, dezinfeksiya otryadlari va tropik stansiyalar faoliyatining yagona tizim asosida boshqarilishi davlat nazoratining kuchayganidan dalolat beradi. Sanitariya tadbirlari uchun alohida smetalar tuzilgani, shtatlar ajratilgani va moddiy ta'minot masalalariga e'tibor qaratilgani qayd etiladi. [8; 24-bet] Mazkur holat sanitariya xizmatining tasodifiy tarzda emas, aniq reja asosida rivojlantirilganini ko'rsatadi. Ayniqsa, laboratoriya jihozlari, dezinfeksiya vositalari va transport xarajatlari uchun mablag ajratilishi sanitariya tizimining amaliy faoliyatiga katta ahamiyat berilganini anglatadi. Bu esa sovet davrida sanitariya xizmatining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, sanitariya tizimining markazlashuvi epidemiologik vaziyat ustidan nazoratni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Xulosa. O'zbekistonda sanitariya-epidemiologiya xizmatining shakllanishi respublikadagi murakkab epidemiologik vaziyat bilan chambarchas bog'liq holda rivojlandi. Yuqumli va parazitar kasalliklarning keng tarqalishi sanitariya nazoratini kuchaytirish, maxsus sanitariya muassasalari tashkil etish hamda profilaktik tadbirlarni muntazam yo'lga qo'yishni talab etdi. Ayniqsa, bezgak kasalligining ommaviy tus olishi tropik stansiyalar faoliyatini rivojlantirishga sabab bo'ldi. [7; 3-bet] Ushbu ma'lumotlar sanitariya xizmatining shakllanishi favqulodda epidemiologik ehtiyojlar asosida yuzaga kelganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sanitariya tizimining davlat miqyosida tashkil etilishi epidemiologik vaziyat ustidan nazoratni kuchaytirishga xizmat qilgan. Bu holat sanitariya xizmatining sovet davridagi muhim ijtimoiy tizimlardan biri sifatida shakllanganini anglatadi.

Tadqiqot natijalari XX asr 20-30-yillarda O'zbekistonda sanitariya-epidemiologiya xizmatining bosqichma-bosqich shakllanganini va qisqa muddat ichida murakkab tashkiliy tizimga aylanganini ko'rsatadi. Tropik stansiyalar, zdravpunktlar tashkil etilishi va ularning faoliyati, laboratoriya nazorati, dezinfeksiya brigadalari hamda profilaktik tadbirlar sanitariya tizimining amaliy asoslarini tashkil etgan. [8; 61-bet] Ushbu ma'lumotlar sanitariya xizmatining keyingi yillardagi rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratilganini ko'rsatadi. Shu sababli

mazkur sanitariya-epidemiologiya xizmatining shakllanish jarayonlari O'zbekiston tibbiyot va sanitariya tarixining muhim bosqichlaridan biri sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Farg'ona VDA 1104-fond, 2-ro'yxat, 80-yig'ma jild
2. Martin McKee, Judith Healy, Jane Falkingham (editors). Health care in Central Asia. European Observatory on Health Care Systems, 2002. 378 b.
3. Qodirov A.A. Tibbiyot tarixi. O'quv qo'llanma. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2005. 178 b.
4. Qodirov A.A. O'zbekiston tibbiyoti. T.: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashr. 2004. 104 b.
5. Xodjayev N.I, Bulayev Z.K. Davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati mustaqillik yillarida, Samarqand: Turon Nashr, 2021. 282 b.
6. Yarmuxamedova N.A va boshq. Epidemiologiya. Harbiy epidemiologiya. Yuqumli kasalliklar epidemiologiyasi, Samarqand: Tibbiyot Ko'zgusi, 2021. 280 b.
7. O'z ITTHMDA. R-1-fond, 1-ro'yxat, 1-tom, 121-yig'ma jild
8. O'z ITTHMDA. R-1-fond, 1-ro'yxat, 1-tom, 485-yig'ma jild
9. O'z ITTHMDA. R-1-fond, 1-ro'yxat, 1-tom, 416-yig'ma jild
10. O'z MA I-1-fond, 12-ro'yxat, 1741-yig'ma jild
11. O'z MA R-40-fond, 1-ro'yxat, 313-yig'ma jild
12. O'z MA R-40-fond, 1-ro'yxat, 12-yig'ma jild
13. Ниязматов Б.И., Кудашева Л.В., Шоумаров С.Б., Мустафаев Х.М. История организации и развития санитарно-эпидемиологической службы в республике Узбекистан. Ташкент: "Узбекистан". 2008. 302 б.
14. World Health Organization. Elimination of malaria in Uzbekistan. WHO, 2023.
15. Исаев Л. М. О некоторых особенностях эпидемиологии малярии и противомаларийной борьбы в Туркестане // Труды третьего Всероссийского съезда по малярии, 1925.
16. Lindberg G. U. Личинкоядные рыбы Средней Азии. Moskva-Leningrad, 1947.
17. Самаркандский государственный медицинский университет. Вклад Леонида Михайловича Исаева в становлении медицинской паразитологии в Самарканде
18. Sh A Razakov, G Sh Shakhgunova. Current malaria situation in the Republic of Uzbekistan//Article in Russian//Sh A Razakov et al. Med Parazitol (Mosk). 2001 Jan-Mar. Med Parazitol (Mosk). 2001 Jan-Mar:(1):39-41.PMID: 11548313